

DAVLATNING IJTIMOIIY TO'LOVLARNI AMALGA OSHIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 29.08.2025

Revised: 30.08.2025

Accepted: 31.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*ijtimoiy to'lov,
kambag'allik, ijtimoiy
tahdidlar, ijtimoiy to'lov,
ijtimoiy adolat..*

Ushbu ilmiy maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida aholining turli qatlamlarini kambag'allikdan chiqarish, ularni ijtimoiy himoya qilishning dolzarb masalalari keng yoritilgan. Mualliflar hozirgi ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkchilikning xilma-xilligi sharoitida har bir fuqaro uchun ijtimoiy xavfsizlik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zarurligini asoslab beradilar. Maqolada ijtimoiy himoyaning klassik va zamonaviy ta'riflari, xalqaro va mahalliy iqtisodchi olimlar fikrlari asosida tahlil qilinib, hozirgi bosqichda ijtimoiy himoyaning faol va nofaol shakllari, ularning samaradorligi, manzillilik tamoyili va resurslardan oqilona foydalanish zarurati ko'rsatilgan. Shuningdek, kam ta'minlanganlik tushunchasi va u bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar chuqur tahlil qilinadi. Ijtimoiy yordam dasturlarining turlari (mikrokredit, kasanachilik, ijtimoiy ishlar) keltirilib, davlatning roli, resurslar taqsimoti, motivatsiya va ma'muriy xarajatlar haqida so'z yuritiladi.

Innovatsion iqtisodiyot munosabatlari sharoitida turli qatlamdagi aholini kambag'allikdan chiqarish muhim o'rin tutadi. Hozirgi ko'p ukladli iqtisodiyot va mulkchilikning turli-tumanligi sharoitida har bir jamiyat a'zosini kambag'allikdan himoyalash va ularga yordam

berish zaruriy holdir. Amaldagi kuchli ijtimoiy himoya o'tish davridagi qiyinchiliklarni yumshatdi, ijtimoiy maqsadga mo'ljallangan resurslar oshishi, kam ta'minlangan aholi uchun turli xil nafaqalar joriy etilishini ta'minladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy himoyani oddiy vazifasini aholini alohida guruhlariga ijtimoiy tovon to'lash natijasida ular daromadlarini saqlab qolish, ya'ni nafaqat shaklini namoyon qilmoqda. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy holat esa ijtimoiy himoya rolining o'zgarishini taqozo etadi. Buning uchun birinchi navbatda barcha ijtimoiy siyosat konsepsiyasini qayta qurish, uni milliy daromadini pasaytiradigan omildan muvozanatlashtiruvchi va o'sishini ta'minlovchi omilga aylantirishi lozim.

Kam ta'minlanganlik daromadlarning kundalik hayot kechirishning eng kam budjetidan ortishi, biroq eng kam iste'mol budjetiga yetmasligi holatini ifodalaydi. Ba'zi toifadagi ishchilarning nisbatan past darajada ish haqi olishi, oila qaramog'ida kam daromadli yoki umuman daromad olmaydigan qismining mavjudligi aholi alohida olingan guruhlarining kam ta'minlanganligini keltirib chiqaradi.

Kam ta'minlanganlik aholini ma'lum guruhini ijtimoiy muammolarini himoya qilishda o'zi alohida bo'lib, faqat yuqori darajadagi iqtisodiy salohiyatga erishganda qaralishi mumkin. Agarda aholini ko'p qismi kambag'al hayot kechirsa, u holda kam ta'minlanganlik faqatgina ijtimoiy emas, balki umumiy iqtisodiy tavsifga ega, chunki bu muammolarni yechish uchun umumiy iqtisodiy o'sishga erishish yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulotni yuqori darajasiga erishish zarur bo'ladi.

Innovatsion iqtisodiyot munosabatlari sharoitida turli qatlamdagi aholini kambag'alligini qisqartirish muhim o'rin tutadi. Hozirgi ko'p ukkladli iqtisodiyot va mulkchilikning turli-tumanligi sharoitida har bir jamiyat a'zosini kambag'alligini qisqartirish va ularga yordam berish zaruriy holdir. Amaldagi kuchli ijtimoiy himoya o'tish davridagi qiyinchiliklarni yumshatdi, ijtimoiy maqsadga mo'ljallangan resurslar oshishi, kam ta'minlangan aholi uchun turli xil nafaqalar joriy etilishini ta'minladi. Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda ijtimoiy himoya atamasiga turlicha yondashishlarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, L.S.Rjanitsina shunday deb yozadi: «Umumiy talqin qilganda ijtimoiy himoyalash orqali biz shaxsiy huquqlarni, iqtisodiy huquqlarni, mehnatga, daromadga, ijtimoiy xizmat ko'rsatishga bo'lgan huquqlarni jamiyat tomonidan kafolatlanishini tushunishimiz mumkin» (Rjanitsina A.S. Doxodi: uroven, differentsiatsiya, garantii. - M.: Profizdat, 1991-S.34-38). Shuningdek, Y.G.Odegov, G.G.Rudenko, N.G.Mitrofanov tomonidan quyidagicha ta'rif beriladi: «Ijtimoiy himoya - bu huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy kafolatlarning butun bir tizimini tashkil etadi, mehnatga layoqatli fuqarolarga shaxsiy mehnat hissasi va tadbirkorligi hisobiga o'z

turmush farovonligini oshirishni, aholining mehnatga layoqatli bo'lmagan va muhtoj qismiga davlat tomonidan to'g'ridan- to'g'ri beriladigan moddiy yordamlar va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladi» (Rinok truda i sotsialnoye partnerstvo. /Y.T.Odegov, Rudenko G.P., Mitrofanov N.T. - M.: Xronograf, 1998-S.239.).

Amerikalik iqtisodchilar S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi ijtimoiy himoya tizimini quyidagicha ifodalaydilar: «Ijtimoiy himoya tizimi - bu velfer dasturlari tizimi bo'lib, muhtoj aholining kambag'allik darajasiga ko'ra ta'minlanadigan nafaqalardan iboratdir» (Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. Ekonomika.-M.: Delo LTD, 1995.-829 s.). AQShdagi ijtimoiy himoya tizimi - muhtoj aholi guruhlariga davlat tomonidan uy-joy berilishi, oziq-ovqat mahsulotlariga talonlar, ijtimoiy nafaqalar, shuningdek, Medikeyd va boshqa dasturlar kiradi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan ham «ijtimoiy himoya» tushunchasining mohiyatini ochib berishda turlicha ta'riflar keltiriladi. Jumladan, M.A.Hakimova «O'tish davrida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi deganda biz bozor shakllanishining og'ir oqibatlari va aholini umuman yangi turmush sharoitlariga o'rgatish bilan bog'liq chora-tadbirlar tizimini tushunishimiz lozim. Bu chora-tadbirlar davlat, tashkilot, muassasa yoki har xil hayriya organlari tomonidan amalga oshirilib, ularning aholi yoki uning ayrim guruhlari oldidagi burchidir» (Xakimova M. i dr. Mikro kreditovaniye: perspektivi razvitiya v Uzbekistane. //Ekonomicheskoye obozreniye, 2001, №2.-S. 5.), deb ta'riflaydi.

Boshqa bir mutaxassis-olima D.N.Rahimova «Ijtimoiy himoya tizimi hozirgi jamiyatda barcha aholi qatlamlarini qamrab olishi kerak, u o'z faoliyatiga mehnatga layoqatli va mehnatga layoqatli bo'lmagan aholini kiritishi lozim. Mehnatga layoqatli aholiga u o'z mehnat ulushi, iqtisodiy mustaqilligi va tadbirkorligi hisobiga, o'z turmush farovonligini oshirish uchun shart-sharoit yaratadi. Mehnatga layoqatli bo'lgan aholiga va ijtimoiy nochor qatlamlariga maxsus yangiliklar, hamda to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan moddiy yordam, pensiya, nafaqalar, stipendiya shaklida hamda soliqlarni bir muncha pasaytirish shaklida namoyon bo'ladi» (Rahimova D. Davlat tomonidan kuchli ijtimoiy himoya tadbirlari qo'llanishi //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2000, №3. -B. 40.), degan fikrlarni bildiradi.

Yana bir iqtisodchi olim A.V.Vahobovning fikricha, «Bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy himoya o'zining manzilini o'zgartirmoqda, ya'ni u aholining o'zini muayyan bir sharoitda hayot kechirish uchun zarur bo'lgan ne'matlarni eng kam darajasi bilan ta'minlay olmaydigan qatlamlariga maqsadli yo'naltirilgan» (Vahobov A. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil

bo'lishi. - T.: Moliya, 2002. - 336 b.). Hozirgi bosqich uchun ijtimoiy himoyaga yuqorida keltirilgan ta'rif uning manzilliligini aniq aks ettiradi. Chunki hozirgi bosqichda ijtimoiy himoyaning aniq yo'naltirilganligiga, manzilliligiga katta e'tibor berilmoqda. Shuning uchun muallif fikricha, manzilli ijtimoiy himoya deganda, muayyan vaqt oralig'ida aholining aynan muhtoj qatlamiga yo'naltirilgan ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashimiz lozim.

O'zbekistonlik taniqli iqtisodchi olimlardan Abdurahmonov Q.X. "Ijtimoiy muhofaza tizimi - aholining hayotiy muhim manfaatlari sohasi bo'lib, uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari davlat va jamiyatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy rivojlanish darajasidan darak beradi. Ijtimoiy muhofazalanish huquqi - odamning munosib turmush kechirish uchun zarur bo'lgan hajmdagi fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati hisoblanadi" (Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti (nazariya va amaliyoti). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: Mehnat, 2004.- 610 b.), deb ta'kidlaydi.

L.M.Allaxverdiyevaning fikrlarida ham shu yo'nalishni ko'rishimiz mumkin: "Ijtimoiy himoya - bu davlat tomonidan aholiga turmush darajasi, ehtiyoji va hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish uchun to'g'ridan-to'g'ri va maqsadli yo'naltirilgan kafolatlar tizimidir" (Allaxverdiyeva L. Aholini ijtimoiy himoyalash //Bozor, pul va kredit, 2001, №10. -B. 9.).

N.Zokirova "... aholini ijtimoiy himoyalash deganda, aholiga yashashi va ishlashi uchun barcha asosiy munosib shart-sharoitlarni yaratishga, kam ta'minlangan ijtimoiy qatlamlarni qo'llab-quvvatlashga davlat tomonidan maqsadli yo'naltirilgan kafolatlarni amalga oshirish jarayonini tushunishimiz lozim" (Zakirova N. O'zbekistonda ham ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalash //Bozor, pul va kredit, 2001, №7.-B. 8.), deb ta'kidlaydi.

SH.A.Mirzayev "ijtimoiy himoya davlatning ijtimoiy siyosatini turli shakl va mexanizmlari orqali fuqaroligi, jinsi, millati, yoshidan qat'iy nazar amalga oshiradigan choralaridir" (Mirzayev SH.A. «Puti usileniya adresnosti sotsialnoy zashiti naseleniya v usloviyax perexodnoy ekonomiki» (na materialax Uzbekistana) avtoreferat dis. , Ta'skent, 2006.-S. 8.) - deb ta'rif bergan.

Ijtimoiy himoya tushunchasini ochib berishda ikki tomonlama ma'noni ifoda etuvchi fikrlarni ham ko'rishimiz mumkin. Agar kengroq talqin qiladigan bo'lsak, har bir mehnatga layoqatli fuqaro o'z haqida o'zi qayg'urishi, munosib yashash uchun mustaqil mehnat qilishi kerak. Har bir fuqaro avvalo daromad keltiradigan ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanishga intilishi, tirikchilik qilishi uchun zarur bo'lgan mutaxassisliklarni egallashi, o'z ustida tinmay mehnat qilishi hamda jamiyat bergan huquqiy imkoniyatlardan foydalanilgan holda o'zini aktiv faoliyatini takomillashtirib borishi zarur. Jamiyatni

boshqarayotgan davlat tomonidan berilgan imkoniyatlardan fuqarolar o'zlarini ijtimoiy ahvollarini yaxshilashda foydalanishlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari, fermer xo'jaligi hamda berilayotgan yer uchastkalarini olib, undan daromad olishga harakat qilishlari lozim. Shu bilan birga davlatning kadrlarni qayta tayyorlash bo'yicha berayotgan moddiy yordamidan foydalanish, korxonalar tomonidan amalga oshirilayotgan rekonstruksiya ishlari, yangi texnologiyani o'zlashtirishda mutaxassislarning ishtirok etishi, zamonaviy texnikani o'rganish bo'yicha malakasini oshirish uchun berilayotgan imkoniyatlardan foydalanish orqali fuqarolar yangi imkoniyatlarni qo'lga kiritib, yuqori daromad oladigan ishga joylashishlari hamda o'z hayotlarini farovon bo'lib borishini ta'minlashlari lozim.

«Ijtimoiy himoya» tushunchasini tor ma'noda talqin etiladigan bo'lsa, asosan aholini obektiv va subektiv sharoitlar tufayli moddiy jihatdan qiyin ahvolda qolgan, o'z kuchi bilan bu qiyinchiliklardan o'zini va oilasini himoya qila olmaydigan aholining ijtimoiy qatlamlarini davlat tomonidan himoya qilish tushuniladi. Agar boshqacha qilib ta'rif beradigan bo'lsak, «Ijtimoiy himoyalash» muayyan (murakkab, xavfli) vaziyatlarda aholi daromadlari darajasi keskin pasayishini oldini olish, ayrim ijtimoiy guruhlariga yordam ko'rsatishi bo'yicha davlat va ijtimoiy guruhlarining sayi-harakatlari yig'indisini ifodalab, davlat tomonidan tartibga solinadigan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Bizning fikrimizcha manzilli ijtimoiy himoya qilish mexanizmini quyidagi uch toifaga ajratishimiz mumkin:

- 1) yakka tartibdagi manzilli;
- 2) hudud tamoyili va indikatorlari bo'yicha manzilli;
- 3) o'zini-o'zi manzilli himoya qilish.

Yakka tartibdagi manzilli turida asosan shaxs kambag'allik chegarasidan oila daromadi tadbirkorlik natijasida oshadimi, ularning ovqatlanishi, uy-joy sharoitlari alohida tarzda ko'rib chiqiladi. Hudud tamoyili va indikatorlari bo'yicha manzilli ijtimoiy himoya deyilganda yakuniy jihatdan aynan shu hudud, nohiya, mahalliy hokimliklarning shu hududdagi o'rtacha farovonlik darajasiga ko'ra aniqlanadi.

Manzilli ijtimoiy himoya o'z ichiga quyidagi xarajatlarni qo'shimcha yuk sifatida qabul qiladi:

- ma'muriy xarajat;
- motivatsiya xarajati.

Ma'muriy xarajatlarda asosan manzilli ijtimoiy himoyani ta'minlashda aholi

ichidan kam ta'minlanganlarini tanlashni, himoyalash choralarini amalga oshirish, shuningdek mahalliy xarajatlar, ya'ni nafaqalarni tarqatish uchun qo'shimcha xodimlarni jalb etish, zarur vositalarni qo'llash xarajatlarini o'z ichiga oladi.

O'zini-o'zi manzilli ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash o'z navbatida davlat tomonidan bandlikni ta'minlashga qaratilgan ishlar orqali amalga oshiriladi.

Motivatsiya xarajatlarida aholi ish vaqti va bo'sh vaqt orasidagi tanlovda albatta bo'sh vaqtni tanlaydi va iloji boricha nafaqaga ilinishi uchun o'z oylik maoshini kamroq qilib ko'rsatadi va boqimandachilik kayfiyatini kuchaytiradi.

Siyosiy va iqtisodiy xarajatlarda davlat aralashuvi natijasida jamiyatda «yutganlar» va «yutqizganlar» mavjuddir. Resurslar taqsimotida ana shu yutqizganlarga yutganlar tomonidan daromadlarni taqsimlanishi tushuniladi. Qat'iy manzilli ijtimoiy himoya ham kam ta'minlanganlar holatini u darajada yaxshilanmasligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy himoya o'z doirasiga ko'ra murakkab aloqadorlikni o'z ichiga oladi va buni davlatni fuqarolarga olib borayotgan xatti-harakatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy himoyani oddiy vazifasini aholini alohida guruhlariga ijtimoiy tovon to'lash natijasida ular daromadlarini saqlab qolish, ya'ni nafaol shaklini namoyon qilmoqda. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy holat esa ijtimoiy himoya rolining o'zgarishini taqozo etadi. Buning uchun birinchi navbatda barcha ijtimoiy siyosat konsepsiyasini qayta qurish, uni milliy daromadini pasaytiradigan omildan muvozanatlashtiruvchi va o'sishini ta'minlovchi omilga aylantirishi lozim.

Iqtisodchi-mutaxassislar shuni nazarda tutishlari lozimki, o'tish davrini boshidan kechirayotgan kishilar ularni qiyinchiliklarini ikki barobar kuchliroq xis qilmoqdalar, chunki:

1) har qanday o'tish davri kishilarning ko'pchilik salbiy tomonga qarab o'zgaruvchi, moddiy ahvoldagi barqarorlikni yuzaga keltiradi. Bu o'tish davrining salbiy iqtisodiy asoratlarini o'zida xis qiluvchi aholi qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatadigan mutanosib tizim yaratishini talab etadi;

2) kishilar odatda ideal, ko'nikma qolish va nihoyat, tafakkur tarziga doir o'zgarishlarni ruhiy jihatdan og'ir kechiradi. Iqtisodiy shart- sharoitlar umumiy ijtimoiy munosabatlarga, kishilardagi yangi hayotiy yo'l-yo'riqlarga bo'lgan ruhiy tayyorgarlikka nisbatan tezroq yaxshilaniladi (O'zbekiston: inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza. - T., 1999.-B. 10.).

Quyidagilar ijtimoiy himoyaning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi:

- jamiyatda adolatli aloqalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya

tizimini yaratish;

- farovon yashash tarzini oshirish;
- o'ziga xos daromadlar siyosati olib borish (Bazileva N.I. Ekonomicheskaya teori Y. -

Minsk: BGEU, 1998.-S.44.).

Aholining kam ta'minlangan qismi deyilganda eng kam zarur bo'lgan iste'mol andozalariga ega bo'lmagan jamiyat a'zolari tushuniladi (Rofo A.N., Jukov A.L. Teoreticheskiye osnovi ekonomiki i sotsiologii truda. - M.: MIK, 1999.- S.45.).

Kam ta'minlanganlik daromadlarning kundalik hayot kechirishning eng kam budjetidan ortishi, biroq eng kam iste'mol budjetiga yetmasligi holatini ifodalaydi.

Ba'zi toifadagi ishchilarning nisbatan past darajada ish haqi olishi, oila qaramog'ida kam daromadli yoki umuman daromad olmaydigan qismining mavjudligi aholi alohida olingan guruhlarining kam ta'minlanganligini keltirib chiqaradi.

Kam ta'minlangan aholi mavjudligi - o'tkir ijtimoiy muammo bo'lib, hattoki boy mamlakatlarda ham bu muammo mavjud. Bu esa doimo davlat tarafidan mazkur muammoga e'tibor berilishini va jamiyat tomonidan kechga qoldirmas chora-tadbirlar ko'rilishini talab qiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishish barcha sivilizatsiyalashgan davlat oldida asosiy vazifa sifatida aholining ijtimoiy guruhlarini, asosan esa past darajadagi moddiy ta'minlanganlarni himoyalashni o'z oldiga qo'yadi.

Bunday aholi guruhlarining mavjudligi, bir tomondan ijtimoiy- siyosiy ziddiyatlarga sabab bo'lsa, boshqa tarafdin esa bu masalaga doimo e'tibor berish va faol g'amxo'rlik qilish insonparvar jamiyat ekanligidan darak beradi (Abakumova N.N., Podovalova R.Y. Politika doxodov i zarabotnogo plati. - M.: Infra-M, 1999.-S.114.).

Kam ta'minlanganlik aholini ma'lum guruhini ijtimoiy muammolarini himoya qilishda o'zi alohida bo'lib, faqat yuqori darajadagi iqtisodiy salohiyatga erishganda qaralishi mumkin. Agarda aholini ko'p qismi kambag'al hayot kechirsa, u holda kam ta'minlanganlik faqatgina ijtimoiy emas, balki umumiy iqtisodiy tavsifga ega, chunki bu muammolarni yechish uchun umumiy iqtisodiy o'sishga erishish yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulotni yuqori darajasiga erishish zarur bo'ladi.

Turli mamlakatlar uchun hayot kechirishning eng kam darajasi farqlanib, erishilgan daromad darajasi va iqtisodiyot tarkibiga bog'liq bo'lgani sababli, kambag'allik har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Eng kam ish haqi doimiy siyosiy tortishuvlar manbai bo'lib qolmoqda. Eng kam ish haqini oshirish tarafdorlari kam ta'minlangan oilalarni daromadlarini oshiruvchi vosita deb

qaraydilar.

Albatta eng kam daromad past darajadagi yashash darajasini ta'minlab beradi.

Eng kam ish haqi darajasini oshirishga qarshi chiquvchilar esa, bu kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlashning eng maqbul yo'li emas, deb hisoblaydilar.

Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:


- 1) ish haqi darajasining oshishi ishsizlikka olib keladi;
- 2) ko'p hollarda ijtimoiy yordam aynan muhtoj kishilarga borib yetmaydi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, kam ta'minlangan aholi uchun minimal ish haqi to'g'risida qabul qilingan qonun va uni narxlar indeksi oshishiga ko'ra indeksatsiya qilinishi qalqon sifatida qaralishi mumkin. Misol uchun Italiyada indeksatsiya iste'mol narxlari indeksi 1 foizga oshganda, Daniyada uch foizga, Belgiyada ikki foizga, Lyuksemburgda ikki yarim foizga oshganida indeksatsiya qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda esa indeksatsiya barcha aholiga nisbatan emas, balki yollanma ishchilarning bir qismini o'z ichiga oladi. Ular jumlasiga AQSH, Kanada, Fransiya, Shveysariya kabi mamlakatlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasida ham narxlar indeksi oshganda indeksatsiya amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida eng kam ish haqini davlat tomonidan tartibga solinishini ta'qozo etadi. Lekin rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda narxlar indeksi necha foizda oshganida indeksatsiya amalga oshishi aniq belgilanmagan.

Biz tadqiqotimiz natijasiga ko'ra, aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining guruhlanishini quyidagi chizma orqali ko'rishimiz mumkin (1-rasm).

Aholini ijtimoiy himoya qilishda asosiy guruhlanishni biz o'z tadqiqot ishimizda faol va nafaol ijtimoiy yordam shakllariga ajratgan holda o'rgandik. Nafaol ijtimoiy yordam sifatida asosan aholiga beriladigan imtiyozlar, natural va pul ko'rinishidagi ijtimoiy yordamni hisobga oldik. Faol ijtimoiy yordamga esa ish joyini yaratish bilan bog'liq bo'lgan dasturlarni, jumladan, kasanachilik yordamida ish joylarini yaratish, mikrokreditlar yordamida ish joylarini yaratish va ijtimoiy ishlarni hisobga olgan holda tadqiq etdik.



1-rasm. Aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarining guruhlanishi

Bizga ma'lumki Sobiq Sovet davrida ijtimoiy yordamning ko'p turlari mavjud bo'lib, ijtimoiy himoyaning asosiy maqsadi pul va dotatsiyalari ko'rinishidagi ijtimoiy yordamni amalga oshirish edi. Lekin bozor iqtisodiyotida aholi boqimandachiligiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, shuningdek davlat mablag'laridan samarali foydalanishni tashkil etish muhimdir. Davlat mablag'lari chegaralanganligini hisobga olganimizda, bizning fikrimizcha ijtimoiy yordamni faol turlarini rivojlantirish muhim sanaladi. Bizning tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, jahon tajribasida qo'llanilib kelingan mikromoliyalash dasturlari ijtimoiy yordamni amalga oshirishda aholining faol faoliyatini talab etadi va aholini daromad bilan ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliy. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finance: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.